



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



XIX ASRNING OXIRI VA XX ASR BOSHIDA JADIDLAR DUNYOQARASHIGA TA'SIR ETGAN OMILLAR

Tag'oyeva Dilnavoz Narziqulovna

*ORCID 0000-0002-9890-0335 Buxoro davlat pedagogika instituti ijtimoiy fanlar
fakulteti, falsafa fanlari fanlari doktori (PhD).*

Elektron pochta: afruzaabdulaziz@gmail.com

ORCID 0000-0002-9890-0335

Annotatsiya. *Ushbu maqolada XIX-asr oxiri XX-asr boshlarida vujudga kelgan
jadidchilik harakati, uning Turkistonga ta'siri va ahamiyati yoritilgan.*

Kalit so'zlar. *Jadidchilik namoyondalari, Sadriddin Ayniy, Abdulvohid Munzim,
Mirkomil Burxonov, Usmonxo'ja Po'latxo'jayev, Xolidxoji Mehri, Mulla Vafo.*

XIX asrning oxiri XX asrning boshi jahon sivilizatsiyasining taraqqiyotida keskin
burilishlar davri bo'ldi. Bu davrda chuqur islohotlar, birinchi va ikkinchi jahon urushi
bo'lib, ilm-fan taraqqiyotida tub sifatiy o'zgarishlar ro'y berdi. Bir jamiyatning butunlay
yod jamiyat ta'sirida qolishi nafaqat hayotda balki kishilarning falsafasida ham inqilob
yasadi. XIX asrning oxiri va XX asrning boshida Markaziy Osiyoda ham boshqa
mintaqalarda bo'lgani kabi o'zgacha fikrlovchi, yangicha qarash vakillari shakllanib bordi.
XIX asrning ikkinchi yarmida O'rta Osiyoda ijtimoiy-iqtisodiy tuzum qoloq, fuqarolarning
turmush tarzi o'ta past, madaniy-ma'naviy hayotida islom dini peshvolarining ta'siri kuchli
edi. Insonlar dunyoqarashida tasavvuf falsafasi an'alarini tiklashga intilish kuchayib
borayotgan bir vaziyatda, unga qarshi kuchlar bilan tafovutlar kelib chiqdi. "XIX asr
ijtimoiy-falsafiy, diniy-axloqiy, siyosiy va madaniy taraqqiyotda so'nggi va keyingi yuz
yillikning boshlanish davri bo'lib, g'oyaviy-nazariy va mafkuraviy qarashlarning
shakllanish xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Jadidlar harakati vujudga kelguniga qadar
Turkistonda turli ma'naviy-g'oyaviy va mafkuraviy oqimlar qadimchilar, islohotchilar,
bedilchilar, mashrabxonlar, shuningdek, Markaziy Osiyo, umuman turkiy xalqlarga taalluqli
bo'lgan tafakkurning turli shakllari, ijtimoiy-falsafiy mazmun va yo'nalishga ega bo'lgan
ma'rifiy ta'limotlar va nazariyalar mavjud edi".

Demak, bu davrda nafaqat jadidlar harakati balki boshqa g'oyaviy ta'limotlar ham
shakllandi. Kishilarning dunyoqarashida tasavvuf falsafasi an'alarini tiklashga intilish
kuchayib borayotgandi. Bu davrda O'rta asr musulmon mutafakkirlarining asarlarini qayta
nashr etish ishlari boshlandi. Kalom falsafasi, shariat axloqiga oid klassik adabiyotlar arab-
fors tilidan turkiy tillarga tarjima qilinib nashr etildi. Masjid va madrasalarda Bedilxonlik,
diniy ulamolar tomonidan qadimchilik harakatlari, sherxonliklar avj oldi. O'rta Osiyoda
ma'rifatparvarlik harakati kishilarning ilm-fan taraqqiyotiga, umuminsoniy qadriyatlarga,



ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy qoloqlikni bartaraf etishga bo'lgan intilishining natijasi edi.

Jadidlar turli mamlakatlardagi taraqqiyot va islohotlar uchun olib borilgan harakatlarning tajribasini milliy asosda qayta ishlashga intildi. Mustamlakachilikka qarshi kurashning bosh g'oyasi ana shu murakkab sharoitda shakllanib yetildi. Bu davr haqida shunday deyilgan: "Tarixdan shu narsa ma'lumki, har bir kichik harakat ertangi katta harakatning zamini vazifasini o'taydi. Bu kungi mag'lubiyat ertangi g'alabaning amalga oshuvida ozmi-ko'pmi rol o'ynaydi. Busiz jamiyatning rivojini tasavvur etish qiyin. Jadidlik Turkistonda XIX asrning oxirida maydonga kelgan, XX asrning boshida shakllanib, qisqa muddatda o'zining cho'qqisiga ko'tarilgan. Jadidlik 1917-yilgi bolsheviklar to'ntarishidan keyin ham sotsialistik diktatura o'rnatilgunga qadar o'z mavqe va yo'nalishini saqlab qola olgan ijtimoiy harakatdir. Ba'zi manbalarda jadidlik oqim deb atalsa, ba'zisida harakat deb aytiladi. Jadidlik oqim emas, harakat, deb ta'kidlaydi B.Qosimov. Ijtimoiy, siyosiy, ma'rifiy harakat yaqingacha ham ataylab faqat ma'rifatchilik harakati deb kelindi. Maqsad jadidlikning doirasini toraytirish, sotsialistikkommunistik mafkuradan boshqasi keng xalq ongini qamrab olishi, egallashi mumkin emas, degan soxta tushunchaning asorati edi. Jadidshunos olim B.Qosimov jadidlik harakatining xarakter va muddaosini 3 turga bo'lib izohlaydi: Jamiyatning barcha qatlamlarini jalb eta oldi. Uyg'onish mafkurasi bo'lib xizmat qildi. Mustaqillik uchun kurash olib bordi. Uning g'ayrat va tashabbusi bilan dunyo ko'rgan Turkiston muxtoriyati bu yo'ldagi amaliy harakatning dastlabki natijasi edi. Maorif va madaniyatni, matbuotni ijtimoiy-siyosiy maqsadlarga moslab chiqdi. Bu xarakter va yo'nalishni qator olimlar e'tirof etdi. Bugungi kunda jadidlarni olib borgan ishlari keng jamoatchilik o'rtasida turli xil bahslarning vujudga kelishiga sabab bo'lmoqda. Aslida jadidlar harakati faqat Turkistonda vujudga kelmadi.

Turkistonda jadidchilik XIX asrning 80-yillarida Rusiya musulmonlari, xususan, Kavkaz va Volga bo'yida yoyilgan shu nomdagi taraqqiyparvarlik harakatining bevosita ta'siri va samarasi sifatida dunyoga keldi. Bunda Ismoil Gaspiralining "Tarjimon" gazetasi (1883) va u asos solgan "usuli jadid" (ikkinchi nomi "usuli savtiya") maktabi (1884) muhim rol o'ynadi. Bu harakatning jadid deb atalishi haqida Abdulla Avloniy "Shul zamonda (1894-1904 yillar) yerli xalqlar orasida eskilik-yangilik (qadim-jadid) janjali boshlandi. G'azit o'qig'uvchilarni mullalar "jadidchi" nom bilan atar edi", degan fikrni keltiradi. Jadidlikning poydevori, tamal toshi usuli jadid maktablarining tashkil qilinishi edi. Hamonki, maqsad jamiyatni yangilash ekan, uni yangi avlodgina qilishi mumkin edi. Buning uchun esa zamon talabiga mos yoshlarni tarbiyalash masalasi jadid allomalarining oldiga qo'yilgan bosh masala bo'ldi. 1900-1925 yillar "jadidchilik" tushunchasining paydo bo'lishi o'z davrining eng peshqadam, tashabbuslar davridir.

O'zbek falsafasining ijtimoiy-falsafiy, diniy-axloqiy, siyosiy va madaniy taraqqiyotida "XIX asrning so'nggi va keyingi yuz yillikning boshlanish davri g'oyaviy-nazariy va mafkuraviy shakllanishining xilmaxilligi bilan ajralib turadi. Turkistonda o'sha paytda turli ma'naviy-g'oyaviy va mafkuraviy oqimlar – qadimchilar, jadidchilar, islohotchilar,





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



bedilchilar, mashrabxonlar, shuningdek, Markaziy Osiyo, umuman turkiy xalqlarga taalluqli bo‘lgan tafakkurning turli shakllari hamda ijtimoiy-falsafiy mazmun va yo‘nalishga ega bo‘lgan “Chig‘atoy gurungi” kabi ancha yetuk yig‘inlar, ular ilgari surgan ma‘rifiy ta‘limotlar, nazariyalar mavjud edi”. Demak, bu davrda nafaqat jadidlar harakati, balki boshqa harakatlar ham shakllangan. XIX asrning ikkinchi yarmidan ilg‘or ma‘rifatparvarlar davlat mustaqilligini yo‘qotilishiga asosiy sabab, O‘rta Osiyo jamiyatining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy qoloqligi ekanini juda yaxshi tushunib yetgan. Ular turli ijtimoiy qatlamlarning orasidan chiqqan va eng asosiysi zakovatli bo‘lib, ilg‘or ziyolilarning birinchi avlodi bo‘ldi. Ana shu negizdan keyinchalik jadidlar yetishib chiqib ularning g‘oyalarini rivojlantirdi va ma‘rifatdan siyosatga qarab yo‘l oldi. Yangi ziyolilarning qarashlarida eng avvalo, aholining barcha ijtimoiy qatlamlari orasida hukm surgan savodsizlikni tugatish, eski ta‘lim tizimini isloh qilish, qoloq, eski va behuda odatlarga chek qo‘yish singari maqsadlar ilgari surildi. Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra ular, ayniqsa diniy mutaassiblik, behuda sarf-xarajatlarga olib keluvchi an‘anaviy odatlarga tanqidiy yondashgan. Agar bunday qarashlar debochasini Ahmad Donish kabi ma‘rifatparvarlar boshlab bergan bo‘lsa, ularning g‘oya va qarashlarini Sadridin Ayniy, Abdulvohid Munzim, Mirkomil Burxonov, Usmonxo‘ja Po‘latxo‘jaev, Xolidxoji Mehri, Mulla Vafo, Abdurauf Fitrat rivojlantirdi. Aslida jadidlik rasman XIX asrning oxirida o‘z amaliy faoliyatini boshlagan bo‘lsa-da, ularning g‘oyalari shu asrning boshidayoq (o‘n to‘qqizinchi asrning boshida) o‘z ta‘sirini namoyon qilayotgan edi. “Turkistonda ilk bor Ovrupa texnikasini o‘rganish kerakligi masalasini Qo‘qon xoni Sayid Muhammad Hakimxon (Olimxonning ukasi) Rossiya, Turkiya, Eron va boshqa mamlakatlarga sayohat qilib qaytgach, 1843 yilda birinchi bo‘lib o‘rtaga qo‘ygan”. Tashqi olam bilan tanishish Turkistonliklarning orasida falsafiy mushohadasi taraqqiy qilayotgan yoshlarni tarbiyalay boshladi. Bundan ko‘rinadiki, tashqi olam bilan tanishish, o‘zga millat va davlatlarning tarixi, madaniyati, Turkiston yoshlarining tafakkurini o‘zgartirgan ilk sabablardan biridir. Tarixdan ma‘lumki, hamma vaqt globallashuv jarayoni mavjud bo‘lgan, faqat o‘zini sekinlik bilan namoyon etgan. Mana shunday jarayonlarning natijasi o‘laroq jadidlik ta‘limoti o‘zini turli yo‘llar bilan namoyon qila boshladi. Turkistonda jadidlik g‘oyalari va harakatining ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va ma‘naviy zamini XIX asrning oxirgi choragiga kelib to‘liq yetildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xo‘jayev F., Buxoro inqilobining tarixiga materiallar, Toshkent, 1997;
2. Validiy, Bo‘linganni bo‘ri yer (Xotiralar), Toshkent, 1997;
3. Avloniy A., Tanlangan asarlar, 1-2-jildlar, Toshkent, 1998;
4. O‘zbekiston tarixi: yangi nigoh. Jadidlar harakatidan milliy mustaqillikka qadar, Toshkent, 1998;
5. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash, Toshkent, 1999;





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



6. Behbudiy M., Tanlangan asarlar, Toshkent, 1999;
7. Fitrat, Tanlangan asarlar, 1-2-jildlar, Toshkent, 2000;

